Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 347

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING O‘RNI

Sanjarbek Dilmurod o‘g‘li Boymurodov*

O’zbekiston Milliy Universiteti talabasi

✉ sanjarboymurodov34@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining davlat siyosatini amalga oshirishdagi o‘rni, ularning ijtimoiy hayotdagi funksional ahamiyati hamda jamoatchilik ishtirokining demokratik boshqaruvdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari, mavjud muammolar hamda istiqbolli takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar

fuqarolik jamiyati, davlat siyosati, jamoatchilik nazorati, ishtirok demokratiyasi, inson huquqlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy sheriklik, shaffoflik, ochiqlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23886062

XXI asr boshlaridan boshlab insoniyat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi bilan ham belgilanmoqda. Zamonaviy demokratik davlatlarda davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ijtimoiy ishonch, hamkorlik va mas’uliyatga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan “Yangi O‘zbekiston” siyosati natijasida davlat boshqaruv tizimida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezident ta’kidlaganidek: “Jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali xalqimizning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash — biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning eng muhim tamoyillaridan biridir.”[1]

Fuqarolik jamiyati institutlarining mohiyati va ularning davlat siyosatidagi
roli

Fuqarolik jamiyati — bu davlatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan, fuqarolarning o‘z manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda barqarorlik va adolatni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy tuzilmalarning yig‘indisidir. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), siyosiy partiyalar va harakatlar, kasaba uyushmalari, mahalla va oila institutlari, OAV (ommaviy axborot vositalari), yoshlar va ayollar tashkilotlari, diniy va madaniy birlashmalar.

[1] Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) – fuqarolar tashabbuslari bilan tashkil etilgan va foyda olish maqsadisiz faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari. Masalan, yoshlar, ayollar, nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla fuqarolar yig‘ini kabi jamiyat Ichida o‘zini tashkil etuvchi tuzilmlar.

Jamoat birlashmalari jamoat fondlari faollik guruhlari – ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan, davlat va jamiyat o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini bajaruvchi tuzilmalar.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) va media tashkilotlari, siyosiy partiyalar ham fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga kirishi ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Fuqarolik jamiyati institutlari” degan bob alohida kiritilgan — xususan 69-modda orqali “fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa NNTlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi” deb belgilangani qayd etilgan.[2] Bundan tashqari 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi. NNTlar va boshqa institutlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun normativ-huquqiy hujjatlar so‘nggi yillarda ko‘p qabul qilib kelinmoqda.

Ushbu institutlar davlat va jamiyat o‘rtasida «ijtimoiy ko‘prik» vazifasini bajaradi, ya’ni jamiyat ehtiyojlarini aniqlaydi, davlatga fikr bildiradi, jamiyatda nazorat va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi.[3] Mahalliy muammolarni hal qilishda, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llashda ularning ishtiroki muhim. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 30 mingga yaqin fuqarolik jamiyati instituti faoliyat yuritayotgani va ularda 150 mingdan ortiq fuqarolarimiz faoliyat olib borishmoqda. 2017-2024 yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini bevosita qo‘llab-quvvatlashga oid 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.

Mazkur institutlar jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash, fuqarolarning davlat qarorlarida ishtirokini ta’minlash, shuningdek inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi.

Endi esa jamoat birlashmalariga to‘xtalib o‘tsam, jamoat birlashmalari – bu fuqarolarning umumiy manfaatlari, g‘oyalari yoki maqsadlari asosida tuzilgan ko‘ngilli mustaqil tashkilotlar bo‘lib ular odatda nodavlat notijorat tashkiloti shaklida faoliyat yuritadi. “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga ko‘ra, ular quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:jamoat tashkiloti, jamoat harakati, siyosiy partiya kasaba uyushmasi, xayriya yoki ekologik uyushma. Misol uchun, “Ezgulik” inson huquqlarini himoya qilish jamiyati, “Ekosan” ekologik harakati va “Yoshlar ittifoqi”.

Davlat siyosatining muvaffaqiyati bevosita fuqarolik jamiyati institutlarining faolligiga bog‘liq. Zero, kuchli fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lmagan joyda haqiqiy demokratik boshqaruv shakllanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari: O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (33-moddasi – fuqarolarning birlashish huquqi, 34-moddasi – jamoat birlashmalariga a’zo bo‘lish erkinligi), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun (2021-yilgi tahrir), “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun (2018-yil), “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun (2022-yilgi yangi tahrir);

Prezident farmonlari va qarorlari — fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini moliyaviy va tashkiliy jihatdan rag‘batlantirishga qaratilgan normativ hujjatlar.

Mazkur qonunlar fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlaydi.

Jamoatchilik ishtirokining shakllari va mexanizmlari:

Jamoatchilik ishtiroki — bu fuqarolar va ularning jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy guruhlarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy muammolarni hal etish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol qatnashishidir.[4] Ya’ni, bu – fuqarolarning davlat hayotida bevosita yoki

[2]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
[3]Karimova G. Demokratiya va fuqarolik jamiyati nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.
[4]Tursunov I. Fuqarolik jamiyati: milliy va xalqaro tajriba. – Toshkent, 2019.

bilvosita ishtiroki demakdir. Jamoatchilik ishtirokining maqsadi: fuqarolarning manfaat va ehtiyojlarini inobatga olish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jamiyatda adolat, oshkoralik va mas’uliyatni kuchaytirish, fuqarolik faolligini oshirish va ishonchni mustahkamlashdan iborat.

O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyotida jamoatchilik ishtiroki quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1 Jamoatchilik eshituvi Fuqarolar davlat organlari faoliyatini muhokama qilish uchun yig‘ilishlar o‘tkazadi.

2 Jamoatchilik muhokamasi Yangi qonun loyihalari, qarorlar yoki dasturlar bo‘yicha fikr bildirish imkoniyati yaratiladi (masalan, regulation.gov.uz portali).

3 Jamoatchilik nazorati Fuqarolar, NNTlar va OAV davlat organlari faoliyatini kuzatadi va baholaydi.

4 Jamoatchilik kengashlari Davlat idoralari huzurida tashkil etiladigan maslahatchi organlar (masalan, Vazirliklar huzuridagi jamoatchilik kengashlari).

5 Fuqarolarning murojaatlari Ariza, shikoyat yoki taklif orqali davlat organlariga murojaat qilish huquqi.

6 OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr bildirish Fuqarolik pozitsiyasini ommaviy tarzda ifodalash.

7 Mahalla yig‘inlari va tashabbus loyihalari Mahalliy muammolarni hal etish bo‘yicha fuqarolarning tashabbuslari.

O‘zbekistonda jamoatchilik ishtirokini ta’minlovchi huquqiy asoslar - “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun (2018-yil 12-aprel), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun. Bu hujjatlar fuqarolarning davlat siyosatini shakllantirishda va amalga oshirishda ishtirok etish mexanizmlarini belgilaydi.

Davlat siyosatida jamoatchilik ishtiroki davlat qarorlarining sifatini oshiradi korrupsiyaga qarshi kurashda samaradorlikni kuchaytiradi, fuqarolarda mas’uliyat va egalik hissini shakllantiradi, davlat boshqaruvida oshkoralik va ishonchni ta’minlaydi. Masalan, “Mening fikrim” portali orqali fuqarolarning qonunchilik tashabbuslari.

“Ochiq budjet” loyihasi — fuqarolar mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlashda ishtirok etadi.

Mahalla fuqarolar yig‘inlari — mahalliy boshqaruvda jamoatchilik ishtirokining eng qadimiy shakli.

Prezident portalidagi “Virtual qabulxona” — fuqarolarning bevosita murojaat mexanizmi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik ishtiroki quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda:

Jamoatchilik eshituvlari – davlat organlari faoliyati yuzasidan fuqarolar fikrini tinglash va hisobdorlikni oshirish mexanizmi.

Ijtimoiy sheriklik – davlat va NNTlar o‘rtasida ijtimoiy sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Jamoatchilik nazorati – fuqarolar tomonidan davlat organlari faoliyatining monitoringi.

Davlat dasturlari va qonun loyihalarini muhokama qilishda ishtirok – “Mening fikrim” portali orqali aholining bevosita taklif berish imkoniyati.

OAV va ijtimoiy tarmoqlar – ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash vositasi sifatida fuqarolarning fikrlarini erkin bildirish imkonini beradi.[5]

Fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Ba’zi NNTlarning tashabbuslari yetarli darajada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmayapti, jamoatchilik nazorati institutlarining huquqiy mexanizmlari amaliyotda to‘liq ishlamayapti, ayrim fuqarolarda ijtimoiy faollik va siyosiy madaniyat past darajada, axborot olish erkinligi cheklangan holatlar hali ham uchrab turadi, NNTlarning moliyaviy mustaqilligi zaif, grant tizimi yetarlicha rivojlanmagan.

Muammolarni hal etish hamda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar zarur:

Davlat–jamiyat sherikligini institutsional mustahkamlash. Davlat siyosatini shakllantirishda NNTlar va jamoatchilik kengashlari vakillarining ishtirokini qonuniy tarzda kengaytirish.

Axborot siyosatini modernizatsiya qilish. Har bir davlat organi o‘z faoliyati yuzasidan ochiq ma’lumotlarni muntazam e’lon qilib borishi kerak.

[5]Huntington, S. Political Order in Changing Societies. – Yale University Press, 1968.

Ta’lim orqali fuqarolik ongini oshirish. Maktab va oliy ta’lim tizimida “fuqarolik jamiyati asoslari”, “huquqiy madaniyat” kabi fanlarni chuqur o‘qitish.

Grant va subsidiyalar tizimini kengaytirish. Ijtimoiy muammolarni hal etayotgan NNTlar uchun davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlar joriy etish.

Hududiy jamoatchilik kengashlarini faollashtirish. Mahalla, tuman va viloyat darajasida jamoatchilik eshituvlari va ochiq muloqotlarni ko‘paytirish.

Xulosa qilib aytganda, davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki zarur. Bu ishtirok davlat hokimiyatining xalq oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi, islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston bugungi kunda “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan demokratik davlatga aylanmoqda. Shu jarayonda fuqarolik jamiyatining kuchayishi — inson manfaatlari, adolat va qonun ustuvorligiga tayanadigan yangi boshqaruv tizimining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Karimova G. Demokratiya va fuqarolik jamiyati nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.
4. Tursunov I. Fuqarolik jamiyati: milliy va xalqaro tajriba. – Toshkent, 2019.
5. Huntington, S. Political Order in Changing Societies. – Yale University Press, 1968.